



ADABIYOT DARSIDA O'QUVCHI FAOLLIGINI KUZATISH VA TAHLIL QILISH

Karimova Arujan Kurbonali qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyot darslarida o'quvchi faolligini oshirishning samarali yo'llari, interfaol va innovatsion metodlarning o'quvchi tafakkuri hamda ijodiy salohiyatiga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, dars jarayonida o'quvchi shaxsini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: adabiyot ta'limi, o'quvchi faolligi, metodika, interfaol metodlar, muammoli ta'lim, mustaqil fikrlash, loyihaviy o'qitish, tahlil.

Adabiyot ta'limida o'quvchi faolligini oshirish zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash orqali amalga oshiriladi. Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri –o'quvchini faollikka, mustaqil fikrlashga, tahlil qilishga o'rgatishdir. Ayniqsa, adabiyot fanini o'qitishda bu jarayon muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki adabiyot – bu inson qalbini, tafakkurini, estetik didini shakllantiruvchi eng kuchli vositalardan biridir. Adabiyot darslarida o'quvchi passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylanishi zarur. Bu jarayonni amalga oshirish uchun o'qituvchi o'z metodikasini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishi lozim. Adabiyot darsining asosiy maqsadi – o'quvchiga badiiy asarni nafaqat o'qitish, balki uni anglash, tahlil qilish, hayotiy tajriba bilan bog'lashga o'rgatishdir. Bunda o'quvchining faolligi, fikrlash tezligi va tahliliy salohiyati muhim o'rin tutadi. O'quvchi faolligi – bu uning darsdagi ishtiroki, savol-javoblarda qatnashuvi, o'z fikrini asoslab ayta



olishi, bahs-munozarada ishtirok etishidir. Bunday faollikni oshirish uchun darsning har bir bosqichi maqsadli va mazmunli tashkil etilishi zarur. Metodist olimlar Q.Husanboyeva va R.Niyozmetova «Adabiyotni o'qitish metodikasi» kitobida shunday deydi: «O'quvchilar ularning oldiga mustaqil ravishda mulohaza yuritish va baholash talab qilinadigan savollar qo'yilganda faollashadilar. Savollar ko'magida o'quvchini izlanishga darsga faol qatnashishga o'z o'rnida tafakkuriy va tahliliy fikrlasga o'rgatish mumkin»¹ Faol o'quvchi – bu o'quv jarayonida mustaqil fikr yurituvchi, o'z munosabatini bildiradigan, savollar beruvchi va bahs-munozaralarda qatnashuvchi shaxsdir. Adabiyot darslarida faollik — o'quvchining badiiy matnga munosabati, o'z fikrini ifoda etishdagi dadilligi hamda ijodiy tahlil qobiliyatida namoyon bo'ladi. Quyida eng ko'p natija beruvchi texnologiyalar va ularning imkoniyatlari keltiriladi:

Muammoli ta'lim texnologiyasi – bu texnologiyada o'qituvchi o'quvchilar oldiga muammoli savol yoki vaziyat qo'yadi. O'quvchi bu muammoni hal etish jarayonida mustaqil izlanadi va fikrlaydi. Masalan:

Nega muallif asarda aynan shu yakunni tanlagan?"

«Qahramon o'rnida siz bo'lganingizda qanday yo'l tutardingiz? Kichik guruhlar bilan ishlash texnologiyasi. O'quvchilarni 3–5 kishilik guruhlariga bo'lib, ularga turli topshiriqlar berish orqali hamkorlikda ishlashga, o'z fikrini bildirishga, jamoaviy qaror qabul qilishga o'rgatiladi. Masalan: har bir guruhga asardagi bir obraz yoki muammoni tahlil qilish topshiriladi. Klasterli (grafik) texnologiyalar Bu texnologiyalar o'quvchilarga asar mazmunini, obrazlar tizimini, muammolarni tarmoqlab ko'rsatishga yordam beradi.

Misollar: «Klaster», «Venn diagrammasi», «Mind map» (aql xaritasi).

¹ Q Husanboyeva, R Niyozmetova. Adabiyot o'qitish metodikasi «Innavatsion-ziyo» Toshkent, 2022. – 390 bet.



Bu grafik shakllar o'quvchilarning tahliliy fikrlashini va mantiqiy bog'liqlikni ko'rish qobiliyatini kuchaytiradi. Ayniqsa, dramatik va epik asarlar tahlilida «rolga kirish» va «bahs» usullari o'quvchilarni badiiy asar mohiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi. O'quvchining mustaqil fikrlashini shakllantirish Faol o'quvchi – bu mustaqil fikr yurita oladigan, o'z qarashiga ega shaxsdir. Adabiyot darsida mustaqil fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi yondashuvlar samaralidir:

1. Asarni o'qigach, muallif g'oyasiga o'quvchi munosabatini aniqlash.
2. Har bir badiiy obrazga o'quvchi nuqtai nazaridan baho berish.
3. Muqobil yakun yozish mashqlari orqali ijodiy tafakkurni faollashtirish.
4. Asardan olingan g'oyalarni zamonaviy hayot bilan bog'lash.

Bu usullar orqali o'quvchi faqat bilim oluvchi emas, balki uni tahlil qiluvchi, yaratuvchi darajasiga ko'tariladi.

O'qituvchining metodik mahorati va pedagogik yondashuvi O'quvchi faolligini oshirishda roli beqiyosdir. Har bir pedagog quyidagi tamoyillarga amal qilsa, dars samarasi oshadi:

- O'quvchiga hurmat va ishonch bilan munosabatda bo'lish;
- Har bir fikrni qadrlash va rag'batlantirish;
- Darsni qiziqarli, hayotiy misollar asosida tashkil etish;
- Texnologik vositalardan (prezentatsiya, video, interaktiv doska) foydalanish.

Bugungi kunda o'quvchilarning kitob bilan ishlashlari ayniqsa yuqori sinflarda nochor ahvolda. Uzluksiz ta'limning keyingi bosqichlarida ya'ni oliy maktabda ham bu ishga katta e'tibor qaratilmaydi. Ammo, o'qituvchining darsga tayyorgarligi va dars tahlilida kitobga bo'lgan e'tiborni chetlab o'tib bo'lmaydi. O'qituvchining darsga yuqori darajada tayyorlanishi orqali o'quvchida darsga

qiziqishni va faollikni oshirish mumkin. Gap shundaki, barcha sinf o'quvchilariga bir xil turdagi interfaol metodlardan va topshiriqlardan doimiy ravishda foydalanish o'quvchida darsda faolligining pasayishiga olib keladi. Bu holatning yuzaga kelishining oldini olish uchun avvalambor, doimiy ravishda yangi metodlardan foydalanish orqali o'quvchiga o'zi bilmagan holda motivatsiya berish orqali faollikni oshirish mumkin. Motivatsiya – o'quvchining o'rganishga ichki ehtiyojini kuchaytiradi. Darsda motivatsiyani oshirish uchun:

- badiiy matndan shaxsiy hayotga tegishli fikrlar topish;
- ijodiy topshiriqlar (she'r yozish, hikoya tuzish);
- mavzuga oid viktorinalar va o'yin shakllaridan foydalanish;
- rag'batlantiruvchi baholash tizimini yo'lga qo'yish zarur.

Faollikning asosiy manbai – motivatsiya. O'qituvchi o'quvchilarning yutuqlarini e'tirof etib, ularni rag'batlantirib borishi lozim. Qiziqarli savol-javoblar, o'yinli mashg'ulotlar, adabiy viktorinalar va tanlovlar darsni jonlantiradi, o'quvchini faol bo'lishga undaydi. Motivatsiya olgan o'quvchi o'zini darsning faol ishtirokchisi sifatida his qiladi, bu esa uning bilim samaradorligini oshiradi. Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, adabiyot darslarida interfaol metodlar qo'llanilganda o'quvchilarning 80–85 foizi faol ishtirok etadi, mustaqil fikr bildiradi va asar tahliliga qiziqish bildiradi.

Xulosa, adabiyot darsida o'quvchi faolligini oshirish uchun o'qituvchi turli texnologiyalarni birlashtirgan holda qo'llashi kerak. Interfaol, axborot-kommunikatsion, muammoli, loyihaviy va o'yin texnologiyalari orqali o'quvchida mustaqil fikrlash, ijodkorlik, tahlil va kommunikativ ko'nikmalar shakllanadi. Zamonaviy adabiyot darsi — bu o'quvchini fikrlashga, izlanishga va yaratuvchanlikka undovchi ijodiy maydon bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қ. Бітібаева. Әдебиетті оқыту әдістемесі. – Алматы: Мектеп, 2004.

2. Жұмақаева Б. Көркем туындыны оқытуда оқушы белсенділігін арттыру жолдары. – Астана, 2018.

3. Турсунов М. О'рта maktabda adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2009.

4. Rahmonova N. Adabiyot darslarida interfaol metodlar. – Samarqand, 2020.

5. Karimova D. Ta'limda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

6. Q Husanboyeva, R Niyozmetova. Adabiyot o'qitish metodikasi «Innovatsion-ziyo» Toshkent, 2022. – 390 bet